

TAFAKKUR RIVOJINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

SH.Q.Mardonov,
O'zPFITI laboratoriya mudiri,
T.A.Almamatov,
Jizzax DPI dotsenti

Mutaxassislar tafakkur ijodkorligining 6 blok omil va jarayonlarini ko'rsatishadi:

1. Idrok va xotira.
2. Tafakkur.
3. Hayol va yangilik.
4. Sezgirlik (ichki sezgi) (intuitsiya).
5. Mustaqillik–o'z fikrini (dunyoqarashini) bimalol ifodalashi.
6. Shaxsning estetik hamda axloqiy sifatleri.

Eng muhim bloklardan biri tafakkur bilan bog'liq blokdir.

«**Tafakkur**» nima? Tafakkur, – A.N.Leontevning fikricha, -bu ob'ektiv borliqning (xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari bilan) inson ongida ifodalanishi, unda inson sezgi orqali olamni, ob'ektiv borliqni tushunib yetadi.

Ushbu tushuncha Pedagogik lug'atda quyidagicha imzohlanadi: tafakkur-insonning narsa-hodisalarni, ob'ektiv borliqni umumlashgan holda uning munosabatlari, aloqalari orqali bilishdir.

Tafakkur faol maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, unda mavjud va yangi (kelayotgan) ma'lumotlarini qayta ishlab, undagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini aniqlab, ular orasidagi aloqadorlikni, qonuniyatlarni aniqlovchi bilish jarayonidir.

Tafakkurning boshqa psixologik jarayonlardan farqi - uning yangi bilimlarni ochishga yo'naltirilganligidadir. Shunday qilib, tafakkur:

1. Psixologik jarayon bo'lib, obektiv borliqdagi umumiylik va alohidalikni ko'rsatadi, ifodalaydi.
2. Tafakkur inson xulqining boshqaruvchisi funktsiyasini bajaradi. Chunki u insonning maqsad, vazifa, vosita, harakat dasturi bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.
3. Tafakkur ijtimoiy jarayondir, uni inson faoliyati davomida orttirgan bilimlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Dizaynerlik tafakkuri tushuchasini faol tafakkur mexanizmisiz tushunish qiyin. Tafakkurga faol jarayon sifatida qarash kerak, chunki faollik boshqa psixik jarayonlardan farqli o'laroq, tafakkurga xosdir.

Inson tafakkurining faol ahamiyatga egaligi, uning o'ziga xosligi, boshqa psixik jarayonlar bilan aloqadorligi, ayniqsa eslash (xotira) bilan, uning rivojlanish

qonuniyatlari psixolog olimlar tomonidan o`rganilgan (B.G.Ananov, P.YA.Galperin, A.V.Zaporojets, G.S.Kostyuk, A.N.Leontev, Yu.A.Samarin, B.T.Teplov, M.N.Shardanov, P.YA.Shevarev).

Ma'lumki, yangi bilimlarni izlashda turli usul va uslublar qo`laniladi (algoritmik, evristik metodlar).

Tafakkur o`tmish tajribasisiz faol bo`la olmaydi. Izlanishlar jarayonida chetga chiqishlar, adashishlar bo`ladi, shu tariqa yangiliklar ixtiro qilinadi, yangi muammolar, masalalar paydo bo`ladi, yechiladi.

Sub'ekt tafakkurining harakatlantiruvchi kuchi, uning maqsad va vositalari orasidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo`lishidadir. Fikr, jarayonining rivojlanishi o`ziga xos bo`lsada, umumiy tomonlari ham mavjud.

Vaziyat muammosi hamisha faoliyatga to`siq sifatida vujudga keladi. Vaziyat muammosini yechish, vaziyat muammosidan chiqib ketish bosqichlarini ko`rib chiqamiz:

- vaziyat muammosini, vaziyatni anglab yetish;
- nima aniq, nimalar nomalumliligini belgilab olish;
- aniqlash (izlash) doirasini (qo`yilgan maqsad, tajriba asosida) belgilab olish;
- farazning paydo bo`lishi;
- faraz to`g`riligini tekshirib ko`rish.

Tafakkur voqeyelikni umumlashgan holda aks ettirish jarayoni bo`lsada, uning fikrlash jarayonida mahsuldorligi har xil bo`ladi.

Muammoning yangiligi esa uning yechimida har xil sakrashlar, evristika (fikrlash), ijodiy fikrlashlar, muammo yechimida mantiqiy tahlilni talab qiladi. Bu jarayonda umumlashgan mantiqiy fikrlash bilan birga ichki (intuitiv) fikr yuritish juda muhimdir. Bu jarayonlar aniq va mavhum vazifalarda, konkret vazifa, predmet va modellarni tahlil qilganda, narsa-hodisalarning noaniq tomonlarini izlashda intuitiv tarzda yuzaga keladi.

Faol, mahsuldor tafakkur natijasida psixologik yangiliklar paydo bo`ladi— yangi aloqa tizimi, o`z-o`zini boshqarishning yangi shakllari, shaxs xususiyatlari va boshqalar insonning aqliy (siljish) rivojlanishiga olib keladi.

O`quvchining maxsuldor faol tafakkuri, unga yangi muammolarni mustaqil yechish, bilimlarni chuqur va tez egallashiga olib keladi.

Tafakkur uchun esda qolganlarini qayta tiklash o`quvchining o`quv faoliyatida muhim rol o`ynaydi. Bu o`quvchiga yangi materialni yaxshi o`zlashtirishga hamda bilim va ko`nikmalarni amaliyotga tadbiq etishga yordam beradi.

Insonning faol, mahsuldir (produktiv) tafakkuri hamda qayta yodga olish, xotirani tiklash (reproduktiv-tafakkurni qayta tiklash) orqali ob'ektiv borliqni bilishida muhim rol o`ynaydi. Chunki inson borliqni bilish, anglash, idrok etish

jarayonida o'zidagi mavjud bilimlarga suyanadi, yangi muammolarni yechishda esa eski mavjud bilimlar kamlik qiladi, natijada u o'z tafakkurini faollashtirib, yangiliklarni ochadi, uning yangi aloqalarini o'rnatadi va bu yo'l kelajakda ham o'xshash muammolar yechimida unga asqotadi.

Sub'ektning shu tariqa muammo yechimini anglab yetishi, kelgusida ham xotirani, tafakkurni qayta tiklash orqali amalga oshiriladi. Haqqoniy real maxsuldor faoliyat—bu o'quvchining borliqni mutaqil bilishi, anglashi natijasidir. Tafakkur ijodkorligi — bu tafakkur rivojining eng yuqori pog'onasi sifatida qaralishi lozim, u o'zining yangiligi, originalligi bilan ajralib turadi.

Muammo ustida qator yillar davomida izlanishimiz, o'rganilgan adabiyotlar, pedagogik tajribamiz tahlili qator psixologik-pedagogik printsiplarni ajratib olishimizga va ular o'z navbatida rivojlantiruvchi ta'lim tizimining muhim komponenti, shuningdek, o'quvchining intellektual rivojlanishida muhim asos vazifasini o'taydi:

1. Muammolik printsiipi.
2. Tafakkur komponentlarining garmonik rivojlanishi.
3. Aqliy faoliyatning algoritmik va evristik rivojlanish printsiipi.

Ushbu tamoyillarni tasvirlashga harakat qilamiz.

Muammolik printsiipi faol tafakkur mahsuli bo'lib, unda yangi bilim va yo'nalishlar rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Muammoli ta'limda bilim, intellektual malakalarning shakllanishi o'quvchining muammo-masalalar tizimini o'qituvchi rahbarligida mustaqil yechish jarayonida sodir bo'ladi.

Muammoning qo'yilishi o'quvchilarning mavjud bilimlari, qo'yilayotgan vazifaning qay darajada tez bajarilishi hamda o'quvchilarning mustaqil bajarish yo'llari bilan tanishtirilganliklariga bog'liq. Shuni esda saqlash kerakki, mavjud bilim-ko'nikmalar muammo yechimiga asos bo'lishi mumkin, lekin o'quvchilarni muammo yechimiga yo'naltirish, unga aytib berish, ko'rsatib berish mutlaqo mumkin emas.

O'qituvchi muammoni shunday qo'yishi kerakki, o'quvchilar mavjud bilim-ko'nikmalari yetishmayotganini sezsın va mustaqil uning yechimini topishga harakat qilsın, o'z bilimidagi kamchiliklarni bilib olsın.

Muammoli vaziyatlarni tashkillashtirishda mavjud bilimlar bilan yangi muammo o'rtasidagi hamda qaramaqarshiliklar, konfliktli vaziyatlar muhim rol o'ynaydi.

Yangi muammo-vazifalar o'quvchini noaniqlika olib keladi, bunda xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Bu xato-kamchiliklarni o'qituvchi o'quvchiga o'z vaqtida sabablari, chiqib ketish yo'llarini ko'rsatib bersa, xech qanday xavf tug'dirmaydi.

Yangilikni ochish, muammoni yechishning asosiy yo`li – «analiz orqali sintez» qilishdir.

Bunda muammo yechimiga uning asosiy va ikkinchi darajali elementlari, yangi aloqa tizimlari, asosiy xususiyatlari, munosabatlari muammo maqsadiga yetishish uchun kiritishni taqozo qiladi.